

"YUSUF VA ZULAYHO SYUJETI: SHARQ ADABIYOTIDAGI AXLOQIY-TA'LIMIY G'OYALAR TAHLILI"

Saloxiddinova Sevinchbonu Bahriiddin qizi

FarDu 3-kurs talabasi

Salohiddinova Gulnoza Kamoliddin qizi

FarDu 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Yusuf va zulayho" syujeti asosidagi adabiy asarlarda mujassam axloqiy-ta'limiy g'oyalar tahlil qilinadi. Sharq mumtoz adabiyotida mazkur syujetning shakllanishi, tarixiy ildizlari hamda turli ijodkorlar tomonidan berilgan badiiy talqinlar ilmiy yondashuv asosida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Yusuf va zulayho, Durbek, Abdurahmon Jomiy, Qur'on, tasavvuf, axloqiy-ta'limiy g'oyalar, sharq adabiyoti.

"Yusuf va zulayho" syujeti Sharq adabiyotining eng qadimiy, eng ko'p qayta yaratilgan hikoyatlaridan biri sanaladi. Syujetning asosiy manbai Qur'oni Karimning Yusuf surasi bo'lib, undagi voqealar tarixiy, axloqiy va irfoniy ma'no jihatidan nihoyatda boydir. Asrlar davomida Firdavsiy, Jomiy, Durbek, Fuzuliy kabi ko'plab ijodkorlar ushbu syujetga qayta murojaat qilganlar. G'arb manbalarida esa u "Joseph and Zuleikha/ Zuleyxa" nomi bilan tanilgan.

Qur'oni Karimda eng go'zal sura nomini olgan bu sura Yusuf (a.s) haqida hikoya qiladi. Surada otalik va birodarlik mehri, kechirimli bo'lish, ishq-muhabbat, tush ta'biri, ayollar makri kabi insoniy xususiyatlar o'z ifodasini topgan

Qur'onda keltirilishicha¹ Ya'qub (a.s) ning o'n ikki o'g'li bo'lgan. Ularning ismlari - Rubil, Yam'un, Yaxudo, Loviy, Zabulun, Yashjar boplib, bu oltovlon Ya'qub (a.s.)ning Laya degan xotini (tog'asining katta qizi)dan tug'ilgan. Yana Zulfa va Balha degan cho'rilaridan to'rt o'g'il - Don, Niftoli, Jod, Oshar. Ya'qub a.s Laya vafot etganidan keyin uning singlisi Rohilga uyulanadi. Undan Yusuf va Binyamin tug'iladi.

¹ . Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. "Munir" nashriyoti, 2021

Yusuf a.s tush ko'radi: tushida o'n bir yulduz, quyosh va oyning unga sajda qilayotgan holda ko'radi. Tushini otasiga aytgach, otasi tushini ta'bir qilib, uni akalaridan sir tutishini aytib ogohlantiradi. Akalari Ya'qub a.s ning Yusuf a.s ga mehri barchasinikidan ortiq ekanini aytishib, ukalariga hasad qiladilar va Yusuf a.s ni hiyla bilan otasidan ruxsat so'rab, olib ketadilar. Yo'lda uni quduqqa tashlaydilar va otasiga uni bo'ri yeb ketganini aytib, qonga bo'yalgan kiyimini ko'rsatadilar. Yusuf a.sni quduq ichidan karvondagi kishi tortib olib, uni Misrga olib borib Misr azizi- Qitfir yoki Itfirga sotib yuboradi. Azizning xotini Zulayho (ba'zi manbalarda Roil) Yusuf a.s ni husniga oshiq bo'lib uni istaydi, Yusuf a.s esa Allohdan qo'rqib uni rad etadi. Zulayho uni qochayotganida ko'yligidan tortganida yirtilib ketadi. Shunda Misr azizi kelib qoladi va Zulayho Yusuf a.s ga tuhmat qiladi, shu payt beshikda yotgan Zulayhoning qarindoshi (amakisi yoki togasining o'g'li) tilga kirib, ko'ylakning old tomoni yirtilgan bo'lsa Yusuf a.s, agar aksi bo'lsa Zulayho yolg'on gapirayotganini aytadi. Misr azizi xotining aybini bilgach uni tavba qilishga chorlaydi. Bundan xabar topgan Misrlik ayollar Zulayhoga ta'na qilishadi. Shunda Zulayho ayollarni to'plab ziyofat uyishtiradi, har bir ayolga pichoq beradi va Yusufni chaqiradi. Ayollar Yusuf a.sni ko'rgach unga mahliyo bo'lib, qo'llarini kesib oladi. (Aslida ayollar Yusuf a.s ni ko'rish uchun ta'na qilgan edilar, chunki Zulayho Yusuf a.s ni hech kimga ko'rsatmayotgan edi). Misr azizi Yusuf a.s ni zindonband qiladi. U yerda ikki kishi unga tushlarini ta'bir qilib berishini so'raydi. Biri shoh huzurida may quyayotganini, biri nonni boshiga qo'ygani va uni qushlar yeyayotganini ko'rganliklarini aytadi. Yusuf a.s ularga biri shoh huzurida yana soqiylik qilishini, birini esa dorga osishlarini va uni qushlar yeyishini ta'bir qiladi. Yusuf a.s soqiyga zindondan chiqqach shohga u to'g'risida xabar berishini aytadi, lekin chiqqach buni Alloh unuttirib qo'yadi. Zindonda jami Yusuf a.s o'n yil turadi. Bir kuni Podshoh tush ko'radi va Yusuf a.s uni ta'bir qilib beradi, shunda uni ozod etib lavozim beradi. Misr azizi vafot etgan uning xotini Zulayhoni unga nikohlab beradi, ular ikki o'g'il va bir qiz farzandli bo'ladi. Shu orada uning akalari Misrga don uchun keladilar, ular Yusuf a.s ni tanimaydi. Ularga Binyamin ukasini ham olib kelishini aytadi, ular otalaridan so'rab, vasiqa berib ukasini

ham Misrga olib boradi. Yusuf a.s Binyaminga o'zini tanitadi. Binyaminni Misrda olib qolish uchun ukalari ketayotgan paytida Binyaminning yukiga cho'michini solib qo'yadi. Ularning yuki tekshirilganda buyum Binyamindan chiqqach, odatlariga ko'ra uni olib qoladi. Shunday qilib, akalari otasining yoniga borib bo'lgan voqealarni aytib beradi, otasi Yusuf a.s firoqida ko'r bo'lib qoladi. Lekin tushida Yusuf a.s tirikligini ko'rgani bois, o'g'illariga Misrga qaytishlarini va u yerda Binyamin va Yusuf a.s ni qidirishlarini aytadi. O'g'illari Misrga qaytgach, Yusuf a.s o'zini tanitadi va ularga oilasini bu yerga olib kelishlarini aytadi. Oilasi kelgach Yusuf a.sga bosh egadilar. Misr hukmdori unga tojini berib, o'zi ham musulmon bo'ladi. Shunday qilib Yusuf a.s ko'rgan tush o'ngidan keladi.

Yusuf haqidagi asl manba shu hisoblanadi. Bu syujet asosida yozilgan asarlarga badiiy to'qima aralashgan. Yusuf va Zulayho asarini yozgan har bir ijodkor asarni fikrlashi, mahorati, zamon talabiga mos qilib yaratgan. Masalan, Durbekning "Yusuf va Zulayho" asari orqali aka-ukalarning urushlari, hasad qilishlari, ayol kishining makriga ko'proq urg'u berilgan. Chunki aynan shoir ijodi davrida Temuriylarning bir-birlari bilan urushlari, xotinlarning saltanatiga aralashuvi bo'lgan, shoir bu asari orqali ularga tarbiya berishni ko'zlagan bo'lsa ajab emas.

Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayho" si esa tasavvufiy tarzda yozilgan. Badiiy to'qima, hislar kechinmasi juda kuchli tasvirlangan. Buni o'qigan har bir inson Yusuf a.s ning go'zalligini va bu orqali Allohning naqadar buyukligini his qiladi. Asarda Zulayho tushida Yusuf a.s ni uch marotaba tushida ko'radi:

"Юмуб кўзни чу уйку майли қилди, Ва лекин кўнглининг кўзи очилди
Эшикдин бир йигит кирди баногоҳ, Йигит йўқ, бал мужассам жони огоҳ.
Хумоюн пайкаредур, олами нур, Жинон боғи аро ғоратгари хур.
Эрур ҳаддин фузун хусну жамоли, Алардин ҳам фузун ғанжу далоли.
Булуб зебо қади андоқки шамшод, Хироми бандаси юз сарви озод.

Zulayhoning Yusuf a.s ga oshiq bo'lib g'am chekkanligi tasviri har kimning hislarini junbushga keltiradi:

Ки: «Эй олгон менинг хушу қарорим, Паришондур ғамингда рўзгорим.

Бериб гам, қилмадинг гамхорлиг ҳеч, Олиб дил, қилмадинг дилдорлиг ҳеч.

Отингни билмагум, эй дилситоним Ки, то қилсам они вирди забоним.

Ишим комим била эрди шакарханд, Танимда най киби ҳоло неча банд.

Ғамингдин, баски ичдим ғунчадек қон, Гулосо пардадин чиқтим намоён.

Демон, мандурман оллингда азизинг, Эрурмен ожизу камтар канизинг.

A. Jomiy ham o'z asarida turli axloqiy g'oyalarga e'tibor qaratgan.

Masalan,:

"Хакиме дедиким: «Сақланг адабни Ки, сирға маҳрам этманг икки лабни.

Нединким сирни икки лаб қилиб фош, Учурмиш куб кишининг жисмидин бош.

На хуш дебдур ҳамул донои хушёр Ки, гар бошинг керак, сирринг ниғаҳ дор".²

Bu bayt orqali inson o'z sirini hech kimga aytmaslikni kerakligini uqtiradi. Asarda sabr qilish, faqatgina Allohga tavakkal qilish, hasad qilmaslik, gunohlari uchun tavba qilish, zulm qilmaslik, adolatli bo'lish kabi g'oyalar mujassam.

Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida esa payg'ambarlar qatori Ya'quv va Yusuf a.s haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. A. Navoiy bundan tashqari bu asarida "Yusuf va Zulayho" haqidagi asar yozishni maqsad qilganini aytib o'tadi: "Yusuf a. s. qissasi andin mashhurroqdurkim, ehtiyoj aning tafsilina bo'lg'ay, nevchunki g'arobat va shirinligi uchun akobir ham nazm va ham nasr aning sharhi asbobin tuzubdurlar va bayonida sehrlar ko'rguzubdurlar. Ul jumladin biri Firdavsiy Tusiy va yana biri hazrat maxdumi Mavlono Nuriddin Abdurahmon al-Jomiy

² Абдурахмон жомий. Юсуф ва Зулайхо. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент - 1974

navvarallohu marqadahukim, andoqkim Yusuf a. s.ning husni va jamoli ta'rifdin mustag'niydir. Alarning dog'i fazl va kamolig'a vash hojat emas. Yana xoja Mas'ud Iroqiy ham nazm qilibdur va balog'atning dodin beribdur. Yana dog'i azizlar mushg'ulluq qilibdurlar. Bovujudi bular bu bebizoatki, ham iborat roqimindur. Komi xotirg'a bu orzuni kechururkim, inshoolloh umr omon bersa, turk tili bila-o'q kofurchun varaq uzra xomani mushkin shamomani surgay. Va bu qissa nazmin ibtido qilib, intihosig'a yetkurgay” .

Har bir asarda turlicha farqlar mavjud. Masalan, Yusuf a.s. ning Misrda sotilgan aqchalari, turlicha berilgan, (ba'zilarida 17 aqcha, ba'zilarida 1 necha dirham) shuningdek, Yusuf a.s va Zulayhoning ilk ko'rishishi kabilarda shoirlar turlicha yondashgan.

Lekin umuman olganda, g'oyalar o'shsh (sabr,taqvo, tavakkul, adolat, aka-ukalar munosabati) barcha asar axloqiy - ta'limiy tarbiya beruvchi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, "Yusuf va Zulayho" qissasi sharq madaniyati va adabiyotining bebaho durdonalaridan biri bo'lib, unda insonning axloqiy komolotga erishishi, sabr va taqvo orqali sinovlardan o'tishi hamda kechirimlilik kabi fazilatlar ulug'lanadi. Turli davrlarda yozilgan talqinlar o'zaro farq qilsa-da, asosiy ma'naviy g'oya - insonni ezgulikka yetaklash - o'zgarmay qolgan. Shu bois ushbu syujet nafaqat adabiy, balki tarbiyaviy jihatdan ham yuksak ahamiyatga ega bo'lib, bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. "Munir" nashriyoti, 2021
2. Абдурахмон жомий. Юсуф ва Зулайхо. Гафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент - 1974
3. Дурбек. Юсуф Ва Зулайхо.Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти Тошкент- 1959
4. Rabg'uziy. Qissasi Rabg'uziy. "Yozuvchi", 1-2-kitob, T., 1990-91.

5. Alisher Navoiy "Tarixi anbiyo va hukamo" G. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. - Samargand :1990